



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Alibekova Shoxsanam

SamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti IV bosqich talabasi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUMTOZ ADABIYOT VAKILLARINING ASARLARINI O'RGANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda mumtoz adabiyot vakillari asarlarini o'rganish, mumtoz adabiyot namunalarining o'quvchi tarbiyasidagi o'rni, maktab darsliklarida berilgan mumtoz asarlarni o'tish haqida fikrlar bayon etilgan. Ularni qay tartibda o'tsa samarali bo'lishi haqida ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, hikmatlar, tarbiya, o'qish darsligi, savol-javob, fikrlash, tahlil.

Mumtoz adabiyot vakillarining yozib qoldirgan durdona asarlari bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishga, o'zgalar fikrini anglashga, xulosa chiqarishga, og'zaki va yozma malakalarini ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga tarbiyada o'rni beqiyosdir.

Insonni odobli qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga otabobolarimiz alohida e'tibor berishgan. Ular bir yigitga qirq hunar oz degan naqlga suyanishgan. Shu hikmat zamirida yuksak odoblarni sifatlarini, rang-barang hunarlarni egallashlar kerak deb qarashgan. Mumtoz adabiyot vakillari bo'lmish

Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy-u Husayn Voiz Koshifiylar, Alisher Navoiy-u Zahiriddin Muhammad Boburlar, Uvaysiy-u Nodiralarning asarlari xalq tarbiyashunosligi bilan uyg'unlashgan. O'tgan asrning boshlarida yashab ijod qilib o'tgan Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Avloniylarning ham tarbiyashunoslik borasidagi qarashlari ibratlidir.

Bolani kichikligidan tarbiyalab borish kerak. Maktab o'qituvchilari o'quvchilarni mumtoz adabiyot vakillarining asarlari orqali tarbiyalashda jusa katta maqsad va natijalarga erishishga muvaffaq bo'lishlari mumkin. Zero, badiiy asarning tarbiya borasidagi kuch-qudrati, salmog'i o'tmish tarbiyachilik tariximizdan ma'lum. Milliy axloq, urf-odat, odobning barcha tomonlarini bolaning joniga singdirib, qoniga aralastirib yuborish kerak. Bunda sof milliy adabiyot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa mumtoz adabiyot vakillarining ijodidan unumli foydalanish bola tarbiyasida yaxshi natijalarni qo'lga kiritishda katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinf maktab darsliklarida mumtoz adabiyotga tegishli bir nechta namunalar keltirilgan. 3-sinf o'qish darsligida "Ulug'lardan o'rganmoq oqillik" bo'limida "Qutadg'u bilig hikmatlari" va Abdulla Avloniyning "Bolari bilan pashsha" asari berilgan.

"Qutadg'u bilig" asaridan keltirilgan ushbu namunalarni ko'rishimiz mumkin:

- Bilimni buyuk bil, uquvni ulug'
Bilim, uquv bilan odamzod qutlug'.
- Har so'zni o'ylab ayt, boshing ketmasin,
Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin
- Tiling tiysang, sog'u salomat boshing,
O'ylab aytsang so'zing, ziyoda yoshing.
- Murodiga yetar bilimli kishi
U dunyo bu dunyo saranjom ishi.
- Shoshilma hech ishda, sabr qil, sabr
Shoshilinch ish oxir jon uchun jabr.
- To'g'ri so'zga omad yoru salomat

Yolgʻonchi boshida ming bir malomat.

Koʻrib turibmizki, bu namunalar orqali bolaga katta tarbiya berishimiz mumkin, buning uchun esa, albatta, oʻqituvchidan katta mahorat talab qilinadi. Bu asarlarda nima deyilayotganini, yaʼni maʼnosini oʻquvchiga tushuntirilib berilishi kerak. Oʻquvchilardan ham fikr yuritishga, mulohaza qilishga undovchi savollarni oʻrtaga tashlagan holda asar tahlili bilan tanishtirish kerak. Oʻquvchilarga quyidagicha savollar beriladi:

1. Bilim nima? Nima uchun Yusuf xos Hojib bilimni buyuk deb bilish kerakligini aytgan?

Bolalar Yusuf Xos Hojibning bilim toʻgʻridagi nasihati bilan birgalikda oʻzlarining bilim nima ekanligi haqiagi fikrlarini bildirib oʻtishadi.

2. Yusuf Xos Hojib tilni tiyib yurmoqlik kerakligi toʻgʻrisida nima degan? Uning gaplariga mos maqollar keltira olamizmi?

Oʻquvchilar keraksiz va otiqcha soʻzlarni soʻzlamaslik toʻgʻrisida gapirishadi. “Avval oʻyla, keyin soʻyla” kabi maqollardan keltishadi.

3. Sabr nima? Ayting-chi, bolalar, siz sabrlimisiz?

Har bir oʻquvchining javoblari tinglanadi.

4. Toʻgʻri soʻz va yolgʻon soʻz haqida Yusuf Xos Hojib qanday fikr bildirdi? Siz bunga qoʻshilasizmi?

Ushbu savolga javob berish orqali oʻquvchilar toʻgʻri soʻz va yolgʻon soʻzning foyda va zararlariga eʼtibor berishadi.

“Bolari bilan pashsha” masali orqali mehnat qilish, yalqovlikdan qochish kerakligini bilib olishadi. Masal shunday berilgan:

Bir pashsha qir tarafdin uchib kelayotgan arini koʻrib; qayerdan kelyapsan, deydi.

Ari: bol, uy yasash uchun mum

Pashsha: men kabi yasha

Ari: Mashaqqatsiz taomda lazzat boʻladimi? Mening vaqtim yoʻq deya uchib ketadi

Xulosa shuki, mehnatning tagi rohat, yalqovlikning oxiri xorlikdir.

O‘qituvchi bu masalni shunchaki o‘qitib qo‘ymasdan, uning zamirida yotgan tarbiyani o‘quvchiga bera olish talab qilinadi. Xulosani bolaga to‘g‘ri yetkazish talab qilinadi. Mavzuni o‘tishda masalni rollarga bo‘lib bolalar tomonida ijro etgizdirib o‘tilsa samaraliroq bo‘ladi. Bolaning diqqati oshadi, masal ma’nosiga chuqurroq tushunadi. Shundan so‘ng bolalardan masal ma’nosiga mos misollar so‘raladi. Bunda o‘qituvchining o‘zi hayotiy misol keltirib boshlab beradi. Bolalar davom ettirishadi. Bolalar masaldan, keltirilgan misollardan o‘zlariga xulosa chiqarishadi.

4-sinf o‘qish darligida “Ma’naviyat qalb quyoshi” bo‘limida Husayn Voiz Koshifiyning Salomlashish odobi (Pandnoma) keltirilgan. Yana shu bo‘limda “Odamdan nima qoladi” nomi ostida dostonidan parcha berilgan. “Vatanimiz o‘tmishidan” bo‘limida esa mumtoz adabiyot vakillarini o‘rganishga qaratilgan mavzular berilgan. Oybekning “Alisherning yoshligi” (qissadan parcha) asari bor.

“Odamdan nima qoladi?” nomi ostidagi Yusuf Xos Hojibning pandu nasihatlarida ezgulik va yovuzlik ta’riflangan o‘rinlarni kuzatishimiz mumkin. Bolalarga mavzu o‘tilgach amaliyotda ham bu pandu nasihatlariga amal qilishni o‘rgatmog‘imiz kerak. shuning uchun bu darslarni an’anaviy o‘tish bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. O‘yinlar tashkil etib, metodlardan foydalanib o‘tilsa samarali bo‘ladi. Masalan ikki guruhga bo‘lib bir guruh ezgulik ta’riflarini keltirishadi, bir guruh esa yovuzlik ta’riflarini keltirishadi.

“Alisherning yoshligi” asari orqali esa buyuk bobomiz haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi. Undan o‘rnak olishga harakat qiladi.

Xullas, bu berilgan mumtoz asar namunalari orqali o‘quvchi tarbiyasiga ta’sir o‘tkazish kerak. Asarlardagi pand-nasihatlarining qanchalik to‘g‘ri ekanligini savol-javob, hozirgi kundagi hayot bilan bog‘lagan holda atrofimizdan misollar keltirib ko‘rsatib berishimiz kerak. Bolalarni bu borada fikrlashga undash yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Husanboyeva Q va boshq. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”,2020



2. A.Azimov. Boshlang'ich sinf "o'qish kitobi"da berilgan mumtoz adabiyot vakillarining ijodini o'tish. Uslubiy qo'llanma. Samarqand davlat universiteti nashriyoti-2020

3.Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik).- T.: "O'qituvchi", 2019.

4. Matjonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Dolimov Z. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). – T.: "Yangiyo'l poligraf servis", 2017.